



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARINING ILMIY VA AMALIY TAHLILI

*Tajbenova S.S.*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** ona tili darsliklari, boshlang'ich sinf, ilmiy va amaliy tahlil, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, 1-sinfning dastlabki ona tili darslarida nutqiy ehtiyoj.

**Ключевые слова:** учебники родного языка, начальный класс, научно-практический анализ, государственный образовательный стандарт и учебная программа общего среднего образования, речевые потребности на уроках родного языка в первом 1 классе.

**Key words:** native language textbooks, primary school, scientific and practical analysis, state educational standard and curriculum of general secondary education, speech needs in native language lessons in the first 1st grade.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada ta'lim qozoq tilida olib boriladigan sinflar uchun 2017–2019 yillardagi ona tili darsliklarining tahlili yoritilib berilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье освещен анализ учебников родного языка начальной школы за 2017-2019 годы.

### **SUMMARY:**

This article covers the analysis of primary school native language textbooks for 2017-2019.

2017-yilda e'lon qilingan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi"ning "Ona til" qismi asosida "Ana tili", 2020-yili "Ona tili o'quv fanidan milliy o'quv dasturi" loyihasi, uning 2022-2023-o'quv yili uchun tasdiqlangan varianti asosida "Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı" darsliklari chop etildi. Ushbu darsliklar ona tilidan belgilangan kompetensiyalarning tadrijiy tahlilini kuzatish imkonini beradi.

1-sinf "Ана тілі" darsligida [1] quyidagi nazariy bilimlar berilgan qoidalar:

Gapdagi birinchi so'zning bosh harf bilan yozilishi (6-24 betlar), bosh harf bilan yoziladigan so'zlar (23-, 25-, 65-, 67-, 68 betlar), bir bo'g'inli so'zlarning bo'g'in ko'chirilmasligi (30-bet), ayrim unli tovushlarning so'z bo'g'inlarida



ishlatilishi (33-, 35-, 40-, 41-, 42-, 43- va boshqa betlar), soʻz oxiridagi *к* tovushidan keyin unli tovush kelsa, *к* ning *г* ga aylanishi (58-бет), soʻz oxiridagi *к* tovushidan keyin unli tovush kelsa, *к* ning *ғ* ga aylanishi (62-бет), gapda har bir soʻzning ayrim yozilishi (87-бет), darak gapning oxiriga nuqta (91-бет), soʻroq gapning oxiriga soʻroq (93-бет), buyruq gapning oxiriga undov (96-бет) belgilari qoʻyilishi.

Koʻrinadiki, 1-sinfning dastlabki ona tili darslarida nutqiy ehtiyoj ustuvorlik qilgan: gapdagi birinchi soʻzning bosh harf bilan yozilishi, bosh harf bilan yoziladigan soʻzlar yuzasidan nazariy maʼlumot berilgan. Lekin negadir nutqiy ehtiyoj yetarlicha qondirilmagan: darak, soʻroq, buyruq gaplar oxirida qoʻyiladigan tinish belgilariga gap tuzishga doir mashqlardayoq duch kelinadi. Ushbu tushunchalar yuzasidan beriladigan bilimlar oʻquv yilining oxiriga oʻtib qolgan. Orada fonetikaga doir tushunchalar bilan bogʻliq mavzular joy olgan. Bular maʼlum darajada tizimli kursni eslatadi.

Nazariy maʼlumotlar sirasida quyidagi 9 ta qoida berilgan:

Бірінші сөз бас әріппен басталып жазылады.

Республиканың, облыстың, ауданның, ауылдың, қаланың, таудың, өзеннің, көлдің және төбенің аттары бас әріптен бастап жазылады.

Адамдардың аты- жөні бас әріптен бастап жазылады.

Бір буынды сөздер тасымалданбайды.

Жуан буынды ы жазылады: ба-лық, ха-лық.

Жіңішке буында і жазылады: ірі, бір, іні, ілім.

ы, і дыбыстарына аяқталған заттың қимылын білдіретін (оқы, тоқы, өрбі) сөздерге у дыбысы қосылғанда, соңғы ы, і дыбыстары түсіп қалады.

Сөз соңындағы қ дыбысынан (әрпінен) кейін дауысты дыбыс әріптері келсе, қ дыбысы ғ дыбысына (әрпіне) айналады: қазық- қазығы, қазақ-қазағы, жұмбақ-жұмбағы.

Хабарлы сөйлемнің соңында нүкте (.) қойылады.

Berilgan qoidalar orasida qoʻshimchalar imlosiga bagʻishlanganlari juda kam, kelishik qoʻshimchalariga doirlari umuman koʻrinmaydi: Vaholanki ushbu til hodisalarini 1-sinf danoq nutqda qoʻllamaslikning iloji yoʻq: ularni oʻrganishga nutqiy ehtiyoj juda kuchli. Aslida qoidalar 9 ta emas, undan ham koʻproq boʻlishi kerak edi, deb oʻylaymiz.

1-sinfda asosan soʻzlardagi tovushlar, tovushlarga qarab soʻzlarning turlari, imlosi, soʻz turkumlari oʻrganiladi. Talaffuz qoidalari deyarli berilmaydi. Demak, orfoepiya meʼyorlari haqida soʻz yuritilmaydi. Darslikda bir mavzudagina soʻzlarning qoʻshimchalar yordamida bogʻlanishi (qoʻshimchanning taʼrifi) beriladi, lekin qoʻshimchalarning oʻzi (talaffuzi, imlosi) haqida gapirilmaydi.

1-sinf darsligida fonetika va orfografiya bo'yicha berilgan mashq shartlariga ko'ra quyidagilar o'rgatiladi: ata – ana kabi so'zlarda so'z ma'nosini o'zgartirayotgan tovush-harfni topish; so'zdan bir tovush tushirib qoldirilganda so'z ma'nosining o'zgarishi; so'z ma'nosini o'zgartirgan tovush-harfni topish; so'zda tovushlar sonining o'zgarishidan so'z ma'nosining ham o'zgarishi; odam otlarida uchraydigan unli tovushlarni topish; so'zdagi bir tovushni o'zgartirib yangi so'z hosil qilish; so'zlarning ma'nolarini solishtirish; nuqta o'rniga tegishli tovushni qo'yib yozish; so'zlarni solishtirib o'qish; unli tovush harflarining tagiga chizish; so'zda nechta tovush, nechta harf borligini aytish; gapning birinchi so'zini bosh harfdan yozish; unli tovushlarning tagiga chizish; rasmga qarab so'z bo'g'inini tugallash; unli tovushlar, undosh tovushlar; yo'g'on (жуан) unli tovushlar (а, о, ы, ү); savollarga javob berish (lingvistik); unli tovushlarni atash; nuqtalar o'rniga а yoki ә unli tovushini qo'yish; yo'g'on unli tovushli so'zlarni topish; ingichka (жиңишке) unli tovushlar (ә, е, ө, і, ү ә, и, (y)); so'z ichidagi unli tovushlar yo'g'on bo'lsa, so'z ham yo'g'on bo'lishi; aksincha, ingichka so'zlar bo'lishi; odam otining (yer-suv otining) bosh harf bilan yozilishi; uy hayvonlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan yozilishi; bo'g'in; bo'g'in ko'chirish; A tovushi – yo'g'on unli tovush; ot, sifat, son, fe'lining ta'rifi; so'zlarning o'zaro bog'lanishi.

So'zdan tovush tushirish, so'zga tovush qo'shish haqidagi bilimlarga nutqiy ehtiyoj nihoyatda oz darajada: ular o'quvchilarni so'zga tovush qo'shish yoki undan tovush tushirib qoldirishning so'zni o'zgartirib, boshqa so'zga aylanib qolishini ko'rsatish orqali ogohlikka chaqiradi, xolos. Ushbu bilimlar qiziqarli fonetika sifatida o'rganiladi, deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Qoidalarni mustahkamlash maqsadida berilgan mashqlar sirasida ushbu maqsad uchun – qoidalarni aytib misol keltirish, til hodisasining qo'llanishini qoidalar bilan tushuntirish, xatolarni qoidaga asoslangan holda tuzatish kabilar uchun xizmat qiladiganlari yo'q darajasida. Vaholanki, lingvistik kompetensiya qoidalarni faollashtirish asosida shakllanadi.

2-sinf “Ана тили” darsligida 1-sinfda fonetika va imlo bo'yicha o'tilgan materiallardan ayrimlari aynan eslatilgan, lekin shundan keyin yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. 19-betda и tovushi o'rnida ы ва і eshitilgani bilan ular yozilmasligi; 29-betda p tovushi bilan tugallangan so'zga unli bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilsa, п harfi б ga aylanishi; so'z oxirida б eshitilsa ham, п yozilishi; 36- betda so'z boshidagi л, р harflari oldida ы, і tovushlari eshitilsa ham, ular yozilmasligi va b.

2-sinf “Ана тили” darsligida [2] berilgan yangi bilimlar: п undosh bilan bitgan so'zga unli bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilsa, п ning б ra ga aylanishi



(29-bet), tovush-harflarning qo'llanishi, bir bo'g'inli so'zlarning bo'g'in ko'chirilmasligi (41-bet), bo'g'in ko'chirganda avvalgi bo'g'indan keyin yarim chiziqcha (-) qo'yilishi (41- bet), bosh harf bilan yoziladigan so'zlar (44-, 46-, 49-betlar), ikki qismli so'zlarning ajratib yozilishi (82-bet), gap bilan bog'liq bilimlar, ma, me, pa, pe qo'shimchalarining o'zi qo'shilgan so'zdan ajratib yozilishi (98-bet), ega bilan kesim orasida tirening (-) qo'yilishi (116-bet).

Ayonki, 2-sinf darsligining avvalida fonetika doir tizimli kurs joriy etilgan. Bosh harf bilan yoziladigan so'zlar haqidagi nazariy ma'lumot orqali 1-sinfda o'tilgan mavzu takrorlangan, qisman boyitilgan. Ikki qismli so'zlarning ajratib yozilishi haqida bilim berilgach, qo'shib yoki chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma so'zlarni ham tilga olish zarur edi. Bularsiz ajratib yoziladigan so'zlar haqidagi bilim nomukammal bo'lib qolgan. Qo'shimchalardan ma, me, pa, pe qo'shimchalarining imlosigina tushuntirilgan. Ushbu bilimlar nutqiy ehtiyojlarni ko'p jihatdan qondira olmaydi.

Nazariy bilimlar sirasida quyidagi 4 ta qoida berilgan:

П дыбысына біткен сөздерге дауыстыдан басталған қосымша жалғанса, п дыбысы б-ға айналады: Кітап- кітабы, қап-қабы.

Тасымалданатын буыннан бұрын жарты сызықша (-) қойылады: жа-лау, ел-таңба, ән-ұран.

Екі таңбалы сөздер бөлек жазылады: он бір, жиырма екі, екі жүз.

Бастауыш та, баяндауыш та кім? не? деген сұраққа жауап берсе, онда бастауышта соң сызықша қойылады: Қадиша – ана. Қуаныш - бала.

Ma'lum bo'ladiki, 2-sinf darsligida ham asosan imlo qoidalari bayon qilingan. Ayni paytda ular nihoyatda kam berilgan. Bir nechta o'rindagina talaffuzi tilga olinib, talaffuz va imlodagi farq ko'rsatilgan. Lekin bu yerda ham orfoepiya qoidalari deyarli aks etmagan. p tovushi bilan tugallangan so'zga unli bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilsa, p ning b ga aylanishi; so'z oxirida b eshitilsa ham, p yozilishi kabi qoidalar so'zlashuv nutqi (uslubida) yo'l qo'yiladigan talaffuz xatolarining oldini olishga qaratilmaydi, chunki o'quvchilar bu so'zlarda, odatda, xato qilmaydilar. Bunday qoida to'g'ri qo'llashdagi ongillikni oshirish uchun kerak, xolos.

2-sinf darsligida so'z tarkibi tushuntiriladi, qo'shimchalarning ikki turli bo'lishi aytiladi, lekin ularning o'zi haqida ma'lumot berilmaydi.

Ushbu darslikda [1] 1-sinf darsligida bo'lganidek, lingvistik kompetensiyaning lingvistik asosi – qoidalarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar yo'q darajada.

3-sinf darsligida takrorlash qismida aralash unli tovushli so'zlar, qozoq tilida 42 ta harf borligi; unli va undosh tovushlar, bo'g'in, bo'g'inga ajratish ta'rif, qoidalari (quyi sinfdagilar bilan bir xil); bo'g'in ko'chirish (tasymal); ф, ч, ш,

ingichkalik belgisi (ь) kabi quyi sinflarda imlosi o'rganilmagan harflar; түбір және қосымша (жұрнақ, жалғау); (qo'shimcha qabul qilgan so'zlar ustidagi ishlar (o'qish, yozish va b.); yasama (туынды) so'zlar; so'z ma'nolari, so'z turkumlari (to'liqroq, ya'ni kelishiklar va b.)), gap tushunchalariga doir materiallar bayon qilingan.

3-sinf “Ана тілі” darsligida [3] dastlab o'quv yili boshida ayrim nazariy bilimlar takrorlanadi. So'ngra quyidagi yangi bilimlar beriladi: ayrim unli va undosh tovushlar imlosi (14-, 15-, 17-, 18-, 23- va boshqalar), atoqli otlarning bosh harf bilan, turdosh otlarning kichik harf bilan yozilishi (55-bet), ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, oxirgi bo'g'indagi ы, і harflarining tushirilib qoldirilishi (62-bet) tushum kelishigi (табыс септік) qo'shimchasining imlosi (75-bet), chiqish kelishigi qo'shimchasining egalik qo'shimchasi so'zga -на, -не shaklida qo'shilishi (78-bet), tartib son raqam bilan berilganda raqamdan keyin chiziqcha qo'yilishi (97-bet), qo'shma fe'llarning ajratib yozilishi (102-bet), gap bilan bog'liq bilimlar. Qoidalar:

Э әрпі орыс тілінен енген сөздерде жазылады: эстрада, эмаль, аэробус.

І әрпі сөздің басында және аяғында (одағайларды қоспағанда) қолданылмайды.

Жалқы есімдер бас әріппен жазылады.

Тәуелдік жалғауы түбір сөзге дауысты дыбыстан кейін жалғанғанда, үбір сөздің соңғы буынындағы ы, і әріптері түсіп қалады.

III-жақтағы тәуелдеулі сөзге табыс септіктің жалғауы – н түрінде жалғанады.

Күрделі етістіктің құрамындағы сөздер бөлек жазылады.

3-сінф дарслигида ҳам орфоэпия меъёрлари, талаффузи ва ёзилиши фарқлилиқ ҳақида деярли сўз юртитлимаган.

3-sinf darsligida ham orfoepiya me'yorlari, talaffuzi va yozilishi farqlilik haqida deyarli so'z yurtitlimagan.

4-sinf darsligi [4] gap haqidagi ma'lumotlardan boshlanib, yana fonetika va orfografiyaga doir materiallar berilgan. Chunonchi: qator kelgan qo'sh unililar, tovush almashinishlari (қатаң п, ұяң б); bitta tovushni ifodalovchi ikkita tovush (ё, ю, я); unli tovushlar, undosh tovushlar, yo'g'on va ingichka unililar (quyi sinflar ma'lumotlari aynan keltirilgan), jarangli va jarangsiz undoshlar; undosh tovushlarning har biri haqida materiallar; qo'shma so'zlar, juft (қос) so'zlar; so'z turkumlari (fe'l zamonlari to'liqroq); ko'makchi (шылай) so'zlar; qo'shma gap, yig'iq gap, yo'yiq gap va boshqa tushunchalarga doir materiallar berilgan.

4-sinf “Ана тілі” darsligida [4] dastlab o'quv yili boshida ayrim nazariy bilimlar takrorlanadi hamda quyidagi yangi bilimlar beriladi: у, и unli tovush-



harflarining imlosi (10-, 11-, 12-, 14-, 15-betlar), qo'shma so'zlar imlosi (36-, 37-betlar), qaratqich kelishigi (ilik septik) qo'shimchalarining imlosi (69-bet), jo'nalish kelishigi (барыс се́птік) va boshqa kelishik qo'shimchalarining imlosi (73-, 77-, 82-, 87-, 92-betlar), so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi к, к, п undoshlarining ғ, г, б ga aylanishi (97-bet), III III shaxs egalik qo'shimchali otlarga tushum va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalarining qo'shilishi (103-bet), qo'shma sifatларning yozilishi (112-bet), qo'shma sonlar imlosi (119-bet), takroriy olmoshlar imlosi (127-bet), gapning uyushiq bo'laklarida tinish belgisining ishlatilishi (164-, 166-betlar), undalmali gapda tinish belgisining qo'llanilishi (184-bet), ko'chirma gapdagi tinish belgilari (186-, 187-betlar). Qoidalar:

Қазақы, қалмақы дейтін сөздердегі ы дыбысының алдындағы қатаң дыбыс ұяңға айналмай жазылады.

Сый, тый сөздерінен өрбіген сөзерде – и емес, – ый жазылады. Мысалы: сыйғызу, сыйдыру, тыйылу, тыйылмады.

Сөз ішіндегі и әріпінен соң, а, у жазылмайды, оның орнына я мен ю жазылады.

Алдыңғы түбір сөз дауысты дыбыстар мен ұяң, үнді дыбыстарға аяқталса, келесі түбірдің басқы дыбыстары ұяңдап, ғ, г әріптері жазылады: Нүргелді, Есенғали, Ботагөз, Айғыз.

Алдыңғы түбір қатаң дыбысқа аяқталса, келесі сөз қатаң к, к әріптерімен жазылады.

Екі сөзден құралған адам аттарындағы қатар келген екі дауысты дыбыстың біреуі түсіп қалады.

Өзінен алдыңғы сөзге тек қана қосымша мағына беретін шылаулар: да(-де), та(те).

Біріңғай сөздермен бірге бірнеше рет қайталанып келген осы шылаулардың арасына үтір белгісі қойылады: Менің әжем де, сенің әжен де-аяулы жандар.

Да (де), та(те) шылауларын жатыс се́птігінің жалғауларымен (– да, – де, – та, – те: суда, көлде, атта, електе) шатастыруға болмайды.

Қосымшалар сөзбен бірге (баламен, гүлмен), шылаулар бөлек жазылады: Мұғалім де, оқушылар да саяхаттан көңілді оралды.

Өздері тіркескен сөздерге сұрақ мағынасын беретін шылаулар: ма(ме), ба(бе), па(пе).

Қайталанған осы шылаулардың арасына үтір, соңғысынан сұрақ белгісі қойылады.



– ақ, – ау, – ай, – мыс, – міс, – ды, – ді сияқты шылаулар өзінен бұрынғы сөздерден дефис (-) арқылы бөлініп жазылады: көрікті-ақ, айтыпты-мыс, япыр-ай, апыр-ау.

Ко‘rinadiki, 1–4-sinf darsliklari tuzilish jihatdan o‘xshashlikka ishora qiladigan mavzularning (fonetika va orfografiya, so‘z tarkibi, so‘z turkumlari, gap) aynan yoki tadrijiy takomildagi bayonidan iborat bo‘lib, asosiy yo‘nalishi imloni, yozma nutq savodxonligini shakllantirish bo‘lgan. Mavzular tizimli kursga ham ishora qiladi. Boshqacha aytganda, o‘quvchilarning ushbu so‘z va so‘z shakllarini bilish-bilmasliklaridan qat‘iy nazar imloviy bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish aspektida tarkiblangan. Lekin qoidalarni mustahkamlashga, faollashtirishga qaratilgan mashqlar yo‘q darajada. Imlo qoidalari ustuvor bo‘lgan bunday metodika yozma nutqdan og‘zakiga qarab borish sxemasiga mos keladi. O‘quvchilar so‘z va so‘z shakllarining yozilishiga qarab o‘z talaffuzini to‘g‘rilab borishlari mumkin, degan taxmin kuzatiladi. Bunday talaffuz orfoepiya me‘yorlarini emas, orfografik talaffuzni egallash mazmunidan kelib chiqadi.

Xulasa qilib aytganda, 2017–2019 yillargacha boshlang‘ich sinflar “Ana tili” darsliklaridagi mavzular o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, imlo savodxonligini ta‘minlashga qaratilgan nazariy ma‘lumotlarni o‘rgatish mazmunida tuzilgan. Bu darsliklarda o‘quvchilarning ona tilidan amaliy nutq saviyasi, orfoepik uslubga xos so‘zlashuv nutqi e‘tiborga olinmagan, tovush va harflar haqidagi ma‘lumotlar so‘zlarning yozilishini o‘rgatadi. Lekin so‘z shakllari (qo‘shimchalarning imlosi) butunlay nazarda tutilmaydi. Vaholanki, nutq shunchaki so‘zlardan emas, balki o‘zaro bog‘langan so‘zlardan tuziladi. Bunday bilimlarni boshlang‘ich sinflarda o‘rganmaslik yuqori sinflardagi ta‘lim mazmunini o‘rganishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. So‘zning talaffuzi bilan imlosini qiyoslamaslik, til hodisalarini biror mazmunda tushuntirish malakasini egallashga qaratilgan ma‘lumotlarning berilmasligi matnlarni orfografik o‘qishga odatlanish uchun iz qoldiradi, nutqni tinglab tushunishning to‘g‘riligiga monelik ko‘rsatadi va darsliklar lingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun xizmat qila olmas edi.

#### Adabiyotlar:

1. Ана тілі: Жалпы орта білім беретін мектептердің 1-сыныбына арналған оқулық / М.Умаров. – 9-басылымы. – Т.: “O‘zbekiston”, 2019. –112 б.
2. Ана тілі: Жалпы орта білім беретін мектептердің 2-сыныбына арналған оқулық / М.Омарұлы, в. – Т.: “O‘zbekiston”, 2018. – 128 б.
3. Ана тілі: Жалпы орта білім беретін мектептердің 3-сыныбына арналған оқулық / М.Омарұлы, Г.Нишанова, Р.Өсарова. 6-басылымы. –Т.: “O‘zbekiston”, 2018. –144 б.
4. Ана тілі: Жалпы орта білім беретін мектептердің 4-сыныбына арналған оқулық / М. Омаров. – 6-басылымы. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. –192 б.